



## XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 26-fevral

VII-5-29-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash haqida**

Tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, **yuqori va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati** uchun qulay shart-sharoit yaratish, **yashil tamoyil va yondashuvlarni** keng joriy etish, **iqtisodiy o‘sishga turki beruvchi drayver loyihalarini** amalga oshirish orqali aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoniga hamda Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 27-yanvardagi “Tumanda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida Farg‘ona tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yillik dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-4-11-163-K/25-sonli qaroriga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

### QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.
2. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 27-yanvardagi “Tumanda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida Farg‘ona tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yillik dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-4-11-163-K/25-sonli qaroriga asosan Farg‘ona tumanini 2025-yilda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining asosiy yo‘nalishlari biri etib belgilangan **“Zarbdor” tajribasi asosida shakllantirilgan “drayver” loyihalarini amalga oshirishning dastlabki manzilli ro‘yxati *ilovaga*** muvofiq tasdiqlansin.
3. **Belgilansinki:**

Tuman hokiminining o‘rinbosarlari, tegishli korxona va tashkilotlar rahbarlari “Zarbdor” tajribasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni **sifatli va o‘z vaqtida** amalga oshirilishiga mas’ul bo‘ladi.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari, sektor rahbarlari “**Zarbdor**” tajribasida belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini doimiy nazorat qilib borsin hamda **har chorakda** Dastur ijrosi bo‘yicha **Xalq deputatlari tuman Kengashi yig‘ilishlarida hisoboti eshitib borilsin.**

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO  
TADJIYEVICH

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashining  
2025-yil 26-fevraldag'i  
VII-5-29-11-163-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Farg‘ona tumanida “Zarbdor” tajribasi asosida shakllantirilgan  
“drayver” loyihalarini amalga oshirish uchun  
DASTLABKI MANZILLI RO‘YXATI**

T/r	Loyiha soni	"Drayver" loyihalar nomi va manzili	MFY nomi	Amalga oshiriladigan infratuzilma loyiha nomi	Amalga oshiriladi gan infratuzil ma loyiha soni	Yo‘nalish nomi	Ish turi	Loyiha quvvati jami		shu jumladan		Loyiha (ob‘ekt)ning dastlabki qiymati (mln so‘m)	shundan		
								O‘lchov birligi	Miqdori	yangi qurilish	rekonstruksiya		Respublika budjeti	Mahalliy budjet	
x	2	Farg‘ona viloyati bo‘yicha jami		2	x								2 800	2 800	
x	2	Yo‘nalishlar bo‘yicha jami	X	Elektr tarmoqlari tortish	1		Transformator o‘rnatish	dona	1	1		400	400		
							Sip kabel tortish (yangilash)	km	1,0	1,0					
							Quyosh paneli o‘rnatish	dona							
				Sug‘orish suvi bilan ta’minalash			Artezian quduq qazish	dona	6	6		2 400	2 400		
							Tarmoq tortii	km							
							Lotok o‘rnatish	km							
	2	Farg‘ona tumani			2	x							2 800	2 800	
1	1	"Do‘stlik" MFY hududida joylashgan tuman hokimligi zaxirasidagi 200 hektar bo‘sh yer maydoni suvsizlik sababli foydalanimasdan qarosiz turibdi. Ushbu yer maydonini dehqon xo‘jaligi sifatida o‘zlashtirish orqali ye-auksion savdolari orqali 200 nafar fuqarolarga 1 hektardan ajratish va bog‘dorchilik kompleksini tashkil etish imkoniyati mavjud. 200 hektar maydonga 6 ta tik sug‘orish qudug‘i qazish orqali tumanning drayver yo‘nalishlaridan bo‘lgan "Bog‘dorchilik kompleksi" tashkil etiladi. Bundan tashqari 200 ta dehqon xo‘jaliklari tashkil etilib, 200 nafar ishsiz fuqarolarning bandigini ta’minalash imkoniyati yaratiladi, shuningdek, intensiv eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish yo‘lga qo‘yiladi.	Do‘stlik	Ichimlik suvi bilan ta’minalash	1	Sug‘orish suvi bilan ta’minalash	Artezian quduq qazish	dona	6	6		2 400	2 400		
2	2	"Chimyon" MFY hududida joylashgan ko‘p yillardan buyon foydalanimayotgan sobiq "Chimyon MTP" (mashinasozlik va traktor parki) maydoni oziq-ovqat mahsulotlarini sotishga ixtisoslashgan bozor tashkil etish. Bozor hududida 100 ta savdo rastalari hamda 1000 tonna hajmga ega muzlatgichli ombor quriladi.	Chimyon	Elektr tarmoqlari tortish	1	Elektr tarmoqlari tortish	Transformator o‘rnatish	dona	1	1		150	150		
						Elektr tarmoqlari tortish	Sip kabel tortish (yangilash)	km	1,0	1,0		250	250		

